

TAYANCH-HARAKAT APPARATINING XIRURGIK KASALLIKLARIDA HAMSHIRALIK ISHI

Atajanova Yulduzxon Amindjanovna

Fayzirahmanova Oydin Mamurjon qizi

Abu Ali Ibn Sino nomidagi Marg'ilon Jamoat Salomatligi Texnikumi

Annotatsiya:

Mazkur ishda hamshiralik ishida tayanch-harakat apparatining xirurgik kasalliklarini zamonaviy asbob-uskunalardan unumli foydalangan holda etuk mutaxassis sifatida shakllantirishning usul hamda vositalari haqida so'z boradi.

Kalit so`zlar: Toksemiya, shok, shikastlar, kuyish, termik, kimyoviy, mexanik, nekroz, distrofiya, hamshiralik ishi.

ASOSIY QISM

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, inson salomatligi 19 foiz tashqi muhitga, 20 foiz genetik omillarga, 9 foiz sog'liqni saqlashni tashkil etish va 52 foiz turmush tarziga bog'liq. Dunyo miqyosida fan va ta'lim o'zaro muvofiq tarzda rivojlanib kelayotgani sayin turli davlatlarda ham o'qitish tizimida ham ko'pgina interfaol texnologiyalar shakllanib kelmoqda. Chunonchi tibbiyot xodimlarining kasbiy tayyorgarligini oshirish, kasbiy yutuqlari sonini kengaytirishga bo'lgan e'tibor davlat miqyosida ham e'tirof etilmoqda. Misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil, 18-mart kuni tibbiyot xodimlari bilan ochiq muloqot o'tkazdi. Uchrashuvda davlatimiz rahbari o'z nutqida ularni umumlashtirib, 7 ta muhim yo'nalishni ko'rsatib o'tdi¹:

- Birinchi yo'nalish – birlamchi tibbiy xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish,
- Ikkinchisi – tez tibbiy yordamni rivojlantirish,
- Uchinchisi – tibbiyot muassasalarining sharoitini yaxshilash,
- To'rtinchisi – soha xodimlarini moddiy rag'batlantirish,
- Besinchisi – shifoxonalarni malakali kadrlar bilan ta'minlash,
- Oltinchisi – jamiyatda sog'lom turmush madaniyatini oshirish,
- Yettingchisi – kasalliklarning oldini olishga qaratilgan.

¹ 2022 yil 18 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tibbiyot xodimlari bilan ochiq muloqotdagi suhbat.



Yuqorida keltirib o‘tilgan yo‘nalishlardan beshinchisi – shifoxonalarni malakali kadrlar bilan ta’minalash holati bilan bog‘liq bo‘lib, unga ko‘ra quyidagi ishlar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. Unga ko‘ra 2022-2023-o‘quv yilidan tibbiyot oliygohlariga davlat grantlari asosida qabul kvotalari hududlarda shifokorlarga bo‘lgan haqiqiy ehtiyojdan kelib chiqib, maqsadli oshirib boriladi. Tibbiyot oliygohlarida olti oylik ixtisoslashgan kurslar tashkil etilib, oilaviy shifokorlarni hududlarda zarur mutaxassislik bo‘yicha maqsadli o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi. Barcha tibbiyot kollejlari va texnikumlari oliy ta’lim muassasalariga biriktiriladi. Joriy yildan boshlab, tibbiy brigada, oilaviy shifokor punkti va poliklinikalar ish samaradorligini baholash bo‘yicha reyting tizimi joriy qilinishi aytildi. Ijobiy ko‘rsatkichlarga erishgan tibbiyot xodimlari mukofotlanadi. “Xalq salomatligi posboni” ko‘krak nishoni ta’sis etildi.

Tayanch-harakat sistemasiga suyaklar va muskullar kiradi va yagona suyak-muskul sistemasini hosil qiladi. Skelet va muskullar organizm uchun tayanch bo‘lib, ichki organlarni himoya qilish vazifasini ham bajaradi. Tayanch-harakat sistemasi yordamida organizmning eng muhim funksiyalaridan biri hisoblangan-harakat vujudga keladi. Tayanch-harakat sistemasining uyg'unlashgan faoliyati markaziy nerv sistemasi tomonidan boshqariladi².

Shikastlanish deb — ma’lum bir muhitda ma’lum bir vaqtida, ma’lum bir aholi guruhida (qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarishda, sportda va h.k.), inson organizmiga tashqi muhit omillarining ta’siri natijasida a’zo va to‘qimalarda kuzatiluvchi anatomik va fiziologik o‘zgarishlar yig‘indisiga aytildi. Shikastlanish sindromi hayotda juda ko‘p kuzatiladi. Tinchlik va urush davrilarida ham bu sindrom dolzarbligini yo‘qotmagan. Shikastlanishni aniqlash uchun shikastlarni uchrashini, sababini va sodir bo‘lgan atrof muhitini o‘rganib chiqish lozim. Bu jarayonni shikastlanish xirurgiyasi tinchlik vaqtida, urush paytida esa harbiy dala xirurgiyasi o‘rganadi. Sabablarni o‘rganish, shikastlanish profilaktikasi uchun katta ahamiyatga ega. Shikastlanishlarda mahalliy o‘zgarishlar bilan bir qatorda og‘ir umumiylasoratlar ham mavjud bo‘ladi. Ochiq va yopiq shikastlanishlarning mavjudligi, bemor organizmida har-xil og‘ir holatlarni yuzaga keltiradi. Bu xolat hamshiralardan jarayonni to‘g‘ri rejalahtirishni talab qiladi. Shikastlanish fanining mustaqil va muhim qismlaridan biri ortopediyadir, u tayanch-harakat a’zolarining kasalliklarini, shikasti va ularning asoratlarini, profilaktikasi va davolanishini

² Professional pedagogika. /Rossiya Ta’lim akademiyasi, «Kasbiy ta’lim» uyushmasi - M: APO nashriyoti, 2017 yil





Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st July, 2023

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

amalga oshiradi. Shikastlanishni keltirib chiqaruvchi faktorga ko'ra: mexanik, termik, kimyoviy, elektrik, nurli, ruhiy, operatsion, tug'ruq va boshqalar³.

Shikastlanish (travmatizm) deganda shikastlanishga olib kelgan sabablar tushuniladi. Shikastlanishlar yuz bergan sharoiti va joyiga ko'ra:

- 1) sanoat;
- 2) qishloq xo'jaligi;
- 3) transport;
- 4) sport;
- 5) maishiy;
- 6) harbiy turlarga tafovut qilinadi.

Shikastlanish oqibatida kishi uzoq vaqtgacha ish qobiyatini yo'qotadi, ba'zan u nogiron bo'lib qoladi. Shikastlanish profllaktika- sida korxona rahbarlari, texnika xavfsizligi xodimlari, yo'l nazorat xizmati, uy-joy, maktab, bolalar muassasasi va boshqa tashkilotlarning xodimlari tibbiyot muassasalari xodimlari bilan birga, faol qatnashadilar. Shikastlanishlar ko'pincha mastlik holatida yuz berishini hisobga olib, ichkilikbozlikka qarshi jiddiy kurashish lozim. Sanoat shikastlanishiga sanoat korxonalarida ishlab chiqarish bilan bog'liq zararlanishlar kiradi. Bu hodisalar texnika xavfsizligi, mehnatni muhofaza qilish va sog'liqni saqlash xodimlarining noto'g'ri ishlashi natijasida yuzaga keladi. Uiarga: xodimni ishga olishdan oldm, um maxsus o'qitish, texnika xavfsizligi qoidalari bilan batafsil tanishtirish, so ngra turli xildagi himoya vositalari hamda kiyimkechaklar (ko'zoynak, qo'lqop va h.k.) bilan ta'minlash kiradi⁴.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, nafaqat tayanch-harakat organlaridagi jarohat paytida balki tibbiyotning deyarli barcha kasallik va shikaslanish holatlarda hamshiraning ahamiyati kattaddir. Sababi shundaki hamshira bemorga bosh vrachdan ko'ra ko'proq muloqotda bo'ladi va tibbiy inyeksiyani ham hamshiralarni amalga oshirishi bizga sir emas.

³ Doga A. V., Buryakov D. A., Normaev B. A. Shishali tananing suzuvchi xiraliklari: davolashga zamonaviy yondashuvlar // Xirurgiya yangiliklari, 2018.

⁴ Nguyen J. H., Nguyen-Cuu J., Yu F. va boshqalar. Neodimiydan keyin vitreus tuzilishi va vizual funktsiyani baholash: Ytry-alyuminiy-granat lazerli vitreoliz // Oftalmologiya, 2019; 126 (11): 1517-1526. Havola

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2022 yil 18 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tibbiyot xodimlari bilan ochiq muloqotdagi suhbat.
2. Professional pedagogika. /Rossiya Ta'lif akademiyasi, «Kasbiy ta'lif» uyushmasi - M: APO nashriyoti, 2017 yil
3. Doga A. V., Buryakov D. A., Normaev B. A. Shishali tananing suzuvchi xiraliklari: davolashga zamonaviy yondashuvlar // Xirurgiya yangiliklari, 2018.
4. Nguyen J. H., Nguyen-Cuu J., Yu F. va boshqalar. Neodimiydan keyin vitreus tuzilishi va vizual funktsiyani baholash: Ytriy-alyuminiy-granat lazerli vitreoliz // Oftalmologiya, 2019; 126 (11): 1517-1526. Havola
5. Luo J., An X., Kuang Y. Ytriy-alyuminiy granatining (YAG) lazerli vitreolizining shishasimon suzuvchilar uchun samaradorligi va xavfsizligi // J Int Med Res., 2018; 46 (11): 4465-4471.
6. Mura M., Barca F. 25-Gauge vitrektomiyasi // Dev Oftalmol, 2014; 54: 45-53. havola 18. Zaxarov V. D. Vitreoretinal jarrohlik. - M., 2018.
7. Hollands H., Jonson D., Brox A. C., Almeyda D., Simel D. L., Sharma S. O'tkir boshlovchi suzuvchi va chaqnoqlar: bu bemorda to'r pardasi ajralishi xavfi bormi.